

Xalqaro Nordik Universiteti

"Bixeviorizm"

mavzusidagi taqdimot

Tayyorladi: Nazirqulova Nodira

Bixeviorizm (inglizcha: behaviour — „xulq“) — 19-asrning oxiri — 20-asrdagi amerika psixologiyasining yetakchi oqimlaridan biri. Bixeviorizm ta'limoti asosida odam va hayvon xulqida tashqi muhitdan bo'ladigan ta'sir, qo'zg'atuvchi (stimul)ga javoban yuzaga keladigan xatti harakat va unga taalluqli nutqiy va hissiy javoblarning majmui yotadi. Bixeviorizm introspektiv psixologiya inqirozi sharoitida va hayvonlar psixikasini eksperimental tadqiq qilish ta'siri ostida yuzaga kelgan. Chunki bunday tadqiqotlarda inson psixikasini o'rganishda yetakchi bo'lgan o'z-o'zini kuzatish metodidan foydalanib bo'lmagan, shuning uchun hayvonlarga nazorat qilib turiladigan turkum ta'sirlar ko'rsatish va bu ta'sirlarga hayvonlar tomonidan beriladigan (berilayotgan) javob reaksiyalarini qayd etib borishga asoslangan tajriba metodikasi ishlab chiqilgan. So'ng bu metodika odam psixologiyasini ham o'rganishga ko'chirilgan. Pozitivizm falsafasi tamoyillari bixeviorizmning umummetodologik asosi bo'lib xizmat qilgan. Bu tamoyilga ko'ra, fan, bevosita kuzatib bo'lmaydigan ongni emas, balki faqat bevosita kuzatsa bo'ladigan narsalarnigina qayd etishi lozim.

Psixolog **Jon Uotson** biheviORIZM asoschisi hisoblanadi. U oddiy sxema ishlab chiqdi, unda hayvon hamda inson tomonidan rag'batlantirish refleksi tug'diradi. Uotsonga ko'ra, harakatni tadqiqotga to'g'ridan-to'g'ri yondashuvni tanlasak, har qanday harakatni oldindan bayon etish va boshqarish mumkin. Bunday arzon tushuntirishni ko'plab shaxslar qiziqtirdi. Falsafada ushbu yo'nalishga ham katta e'tibor qaratildi. Faylasuf Jon Lokk odam tajribasiz tug'iladi, deb hisoblagan. **Tomas Gobbs** esa fikrlovchi substansiya mavjud emasligini, odam jismoniy jonivor ekanligini aytdi.

БИХЕВИОРИЗМ



БЕНДЖАМИН Скиннер



Уотсон, Джон
Бродес

Bixeviorizm ta'limotiga ko'ra, odamda, u tug'ilgan vaqtda nisbatan oz (kam) sonli xulqning tug'ma tizimlari (nafas olish, yutish va shahri k.) mavjud bo'ladi va keyinchalik shular ustiga ancha murakkabroq xulq jarayonlari qo'shib boradi. Muvaffaqiyatli reaksiyalar mustahkamlanib boradi va keyinchalik ham „effekt qonuni“ning qayta tiklanishi an'anasiga ega bo'ladi. Reaksiyalarning mustahkamlanib borishi „mashklar qonuniga“ bo'ysunadi, ya'ni bir xil stimullarga javoban bir xil reaksiyalarning qaytaqayta takrorlanaverishi natijasida bu reaksiyalar o'z-o'zidan yuzaga chiqaveradigan bo'lib qoladi.



Bixeviorizm 20-asrning 20- yillarida yuksak darajada rivojlandi. Bixeviorizm atamasi va tadqiqot metodikalarining asosiy g'oyalari antropologiya, sotsiologiya va ped.ga ham tatbiq etildi. Xulqni o'rganish borasida bir-biri bilan bog'liq bu fanlar Amerikada bixevioral fanlar deb ataladigan umumiy nom olgan. Hozir ko'p hollarda bixeviorizm g'oyalari saqlanib qolgan, Ikkinchi jahon urushidan keyin bixeviorizm an'analari qator tadqiqotlar, shuningdek dasturli ta'lim (Skinner) deb nomlangan amerika konsepsiyalarida davom ettirilgan.

Hozirgi zamon psixologiyasida bixeviorizm jiddiy tanqid ham qilinadi. Buning sababi bixeviorizm da ong, tafakkur, iroda va shahri k. asosiy tushunchalar psixologiyadan chetlashtiriladi, psixikaning ijtimoiylik tabiati inkor qilinadi va shularning oqibatida inson xulqi soddalashtirilib yuboriladi.



